



Tarixiy merosni asrash: xalqlar madaniy taraqqiyotida xalq tabobatining ahamiyati

Andijon Davlat Universiteti akademik litseyi ingliz tili o'qituvchisi

No'monov Muhiddin

Annotatsiya: Xalqlarning madaniy tuzilishida chuqur ildiz otgan an'anaviy tibbiyot tarix davomida jamiyatlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynagan. Ushbu maqola an'anaviy tibbiyotning bilimlarni avloddan-avlodga o'tkazish, jamiyat farovonligiga hissa qo'shish orqali madaniy rivojlanishga salmoqli ta'sirini o'rganadi.

Kalit so'zlar: Xalq tabobati, madaniy unsur, madaniy meros, madaniy amaliyotlar, davolash usullari, jismoniy va ruhiy salomatlik, biologik xilma-xillik, zamonaviy tibbiyot, ekologik barqarorlik, ijtimoiy hamjihatlik, globallashuv

Xalq tabobati xalqning madaniy jihatdan o'ziga xosligini ifodalovchi unsurlardan biri hisoblanadi. Xalq tabobati biror xalqning boshqa xalqlardan farqli ekanligini ko'rsatib, uning o'ziga xos tarixi, e'tiqodi va qadriyatlarini aks ettiradi. Xalq tabobati bilan bog'liq amaliyotlar, davolash usullari va marosimlar madaniy meros bo'lib xizmat qiladi, avlodlarni bog'laydi va daxldorlik tuyg'usini rivojlantiradi. Ushbu tabobat an'alarining saqlanib qolishi madaniy o'ziga xoslikning davom etishiga yordam beradi.

Xalq tabobati millat madaniy bilimlarini avlodlarga yetkazuvchi o'ziga xos ko'prik bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatlar ichida bilimlarni kelajak avlodga o'tkazish madaniy rivojlanishning hal qiluvchi jihati hisoblanadi. Xalq tabobati avloddan-avlodga o'tib kelayotgan yozma va og'zaki an'analarga, xalq tabiblarining to'plagan bilimlari va tajribasiga tayanadi. Xalq tabiblari bilan bir qatorda jamiyatning yoshi ulug' avlodi dorivor o'simliklar, davolash usullari va madaniy amaliyotlar haqidagi murakkab bilimlarning vaqt o'tishi bilan yo'qolib ketmasligini ta'minlaydi.

Xalq tabobati inson salomatligiga zamonaviy tibbiyotdan ko'ra o'zgaroq yondashishi bilan ham ahamiyatli. Xalq tabobati ko'pincha tana, ong va ruhning o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda salomatlikka kengroq yondashadi. Bu nuqtai nazar nafaqat jismoniy kasalliklarga, balki aqliy va hissiy farovonlikka ham urg'u beradi. Xalq tabobatini o'z sog'liqni saqlash tizimining bir bo'lagi sifatida qaraydigan Yaponiya, Korea va Singapur kabi sharq mamlakatlari "Salomatlik va sog'likni saqlash tizimlari jahon reytingi"ning



2023-yildagi ro'yhatidan eng yuqor uch pog'onasini egallab turganligi aholi salomatligida xalq tabobatining o'rni hali ham mustahkam ekanini ko'rsatadi.

O'simliklarning biologik xilma-xilligini saqlab qolishda ham xalq tabobati ma'lum darajada hissaga ega. Ko'pgina xalq tabobati amaliyotlari mahalliy o'simliklar va tabiiy resurslardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Xalqlar an'anaviy tibbiyotni o'zlarining madaniy taraqqiyotiga integratsiyalashgani sari biologik xilma-xillikni saqlash muhimligi haqida tushunchalar kuchayadi. Ushbu ikki tomonlama maqsad - tabiiy resurslardan salomatlik uchun foydalanish va bir vaqtning o'zida atrof-muhitni muhofaza qilishni rag'batlantirish - madaniy amaliyotlar va ekologik barqarorlik o'rtasida uyg'un munosabatni yaratadi.

Xalq tabobati shuningdek jamiyatning barqarorligi va ijtimoiy hamjihatligini mustahkamlashga yordam beradi. Kasallik yoki inqiroz davrida jamoalar ko'pincha umumiy an'anaviy amaliyotlar atrofida birlashadilar. Sog'liqni saqlash muammolariga duch keladigan jamoaviy tajriba ijtimoiy rishtalarni mustahkamlaydi, shaxsiy farovonlikdan tashqari butun jamiyat salomatligini qamrab oladigan o'ziga xos tizimni tizimini yaratadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, xalq tabobatining xalqlar madaniy taraqqiyotidagi o'rni ko'p qirralidir. U madaniy o'ziga xoslikni saqlashdan tortib, jamiyat a'zolarining salomatligini ta'minlash va ekologik ongni rivojlantirishga qadar bo'lgan vazifalarni bajarish orqali jamiyat farovonligi va mustahkamligiga sezilarli hissa qo'shadi. Mamlakatlar globallashuvning turli madaniyatlarni yo'q qilishi ortidan kelib chiquvchi muammolarini hal qilar ekan, ular xalq tabobatini madaniy merosning asrab-avaylanishi va barqaror rivojlanishining bir qismi sifatida tan olishi va ravnaq topishi uchun kurashishi juda muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Abrahams, N., R. Jewkes, and Z. Mvo. 2002. "Indigenous Healing Practices and Self-medication Amongst Pregnant Women in Cape Town, South Africa." *African Journal of Reproductive Health* 6 (2): 79–86.10.2307/3583133



2. Abungu, G. 2012. "Africa's Rich Intangible Heritage: Managing a Continent's Diverse Resources." In *Safeguarding the Intangible Cultural Heritage: Heritage Matters 8*, edited by M. L. Stefano, P. Davis, and G. Corsane, 57–70. Woodbridge: Boydell Press.

3. Alivizatou, M. 2012. "The Paradoxes of Intangible Heritage." In *Safeguarding the Intangible Cultural Heritage: Heritage Matters 8*, edited by M. L. Stefano, P. Davis, and G. Corsane, 9–22. Woodbridge: Boydell Press.

4. Antweiler, C. 1998. "Local Knowledge and Local Knowing: An Anthropological Analysis of Contested "Cultural Products" in the Context of Development." *Anthropos* 93 (4–6): 469–494.

5. Bell, L., A. J. Nathan, and I. Peleg. 2001. "Introduction: Culture and Human Rights." In *Negotiating Culture and Human Rights*, edited by L. Bell, A. J. Nathan, and I. Peleg, 3–20. New York: Columbia University Press.

6. Bonsi, S. K. 1992. "Foreign Impact on Precolonial Medicine." In *The Political Economy of Health in Africa*, edited by T. Falola and D. Ityavar, 49–64. Athens, OH: Ohio University Center for International Studies.